

1. Atamalar

- **Kun** — uzluksiz 24 soat.
 - **Mehmon** — ro‘yxatdan o‘tmagan yoki tizimga kirmagan foydalanuvchi.
 - **Foydalanuvchi** — jismoniy/yuridik shaxs yoki alohida bo‘linma, Linnaas servislardan foydalanuvchi.
 - **Biznes-foydalanuvchi** — platformadan tadbirkorlik/kasbiy maqsadda foydalanuvchi.
 - **ERP (desktop)** — Linnaas’ning bepul korporativ dasturiy ta’minoti.
 - **Marketplace** — e’lonlar servisi (Android ilova va veb).
 - **Hisob qaydnomasi (Account)** — foydalanuvchi profili.
 - **E’lon** — tovar/xizmat taklifi yoki vakansiya taklifi.
 - **Limit** — bepul e’lonlar kvotasi (3-ilova).
 - **Rivojlantirish/reklama xizmatlari** — e’lon ko‘rinarligini oshirish va reklama joylari (2 va 6-ilova).
-

2. Umumiy qoidalar

2.1. Ushbu Shartlar Linnaas ERP va Marketplace’dan foydalanish tartibini belgilaydi.

Platformadan foydalanish — Shartlarni qabul qilishni anglatadi.

2.2. Linnaas — Marketplace bitimlarining **tomoni emas**; foydalanuvchilar o‘zaro majburiyatlar uchun javobgar.

2.3. Foydalanish **bepul; faqat reklama/rivojlantirish xizmatlari pulli**.

2.4. Texnik tanaffuslar (22:00–06:00) yoki nosozliklarda xizmat vaqtinchalik cheklanib qolishi mumkin.

2.5. Interfeys, logotip, dizayn va texnik yechimlar — Linnaasning intellektual mulki.

2.6. Yosh chegarasi: Marketplace’dan foydalanish uchun odatda **18+**. 18 yoshdan kichiklar — faqat qonuniy vakil ruxsati bilan.

3. Hisob qaydnomalari

3.1. Ro‘yxatdan o‘tish: telefon raqam/e-mail + parol bilan.

3.2. Yuridik shaxs nomidan faqat vakolatli shaxs ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.

3.3. Bir shaxsga odatda bitta account; zarur bo‘lsa alohida shaxsiy va biznes account ruxsat. Suiste’mol holatlarida tekshirish va cheklash mumkin.

3.4. Ma’lumotlar aniq va dolzarb bo‘lishi shart; o‘zgarishlar zudlik bilan yangilanadi.

3.5. Kirish ma’lumotlari maxfiy; ruxsatsiz kirish aniqlansa darhol parol almashtiring va bizga xabar bering.

3.6. 24 oy faol bo‘lmasa, hisob yopilishi mumkin (oldindan xabarnoma bilan).

3.7. Hisobni istalgan payt bekor qilish mumkin.

4. Kontent va intellektual mulk

- 4.1. Foydalanuvchi o‘zi joylagan kontent (matn, foto) uchun javobgar.
 - 4.2. Foydalanuvchi Linnaas’ga e’lon va rasmlarni Marketplace’da qidiruv tizimlarida ko‘rsatish uchun bepul cheklanmagan litsenziya beradi.
 - 4.3. Boshqa foydalanuvchilar Linnaas va uchinchi shaxslar IP huquqlarini hurmat qilishi talab qilinadi. Ruxsatsiz ko‘chirish taqiqlanadi.
 - 4.4. Shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilish — Maxfiylik siyosatiga muvofiq bo‘lishi shart.
 - 4.5. Linnas MCHJ Foydalanuvchiga ERP tizimi va mobil ilovadan bepul foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Bepul foydalanish faqatgina Foydalanuvchining o‘z ichki ehtiyojlari uchun beriladi.
 - 4.6. Bepul foydalanish Foydalanuvchiga dasturiy mahsulot ustidan hech qanday mulkiy huquq bermaydi. Barcha intellektual mulk huquqlari Ijrochiga tegishli bo’lib qoladi.
 - 4.7. Foydalanuvchiga quyidagilardan taqiqlanadi:
 - ERP yoki APP dasturini o‘zgartirish, sotish, ijara qilish;
 - Dastur kodini aniqlash (reverse engineering), dekompilyatsiya qilish, disassembler;
 - Illovari yoki ERP tizimini tijorat maqsadida uchinchi shaxslarga pullik asosda taqdim etish;
 - Texnik himoya vositalarini chetlab o‘tish yoki bloklash.
 - 4.8. Foydalanuvchi tomonidan qoidabuzarlik aniqlansa, ijrochi foydalanish huquqini bir tomonlama bekor qilishi mumkin.
 - 4.9. Ijrochi bepul foydalanish imkoniyatini o‘z xohishiga ko‘ra to‘xtatish, o‘zgartirish yoki pullik tariflarga o‘tkazish huquqini saqlab qoladi. Bunday o‘zgarishlar haqida Foydalanuvchi oldindan xabardor qilinadi.
-

5. E’lonlarni joylashtirish qoidalari

- 5.1. E’lon — aniq, rost, to‘liq; to‘g‘ri kategoriya tanlanadi, narx **UZSda** (ish/xizmatda narx majburiy bo‘lmasiligi mumkin). Bir e’lon — bitta pozitsiya.
- 5.2. Aloqa ma’lumotlari faqat tegishli maydonlar orqali beriladi (matnda yashirish taqiqlanadi).
- 5.3. Noto‘g‘ri kategoriya aniqlansa, Linnaas e’lonni ko‘chirishga haqli .

6. Bepul e'lonlar

- 6.1. Marketplace'dan foydalanish bepul; foydalanuvchi ilovadagi **bepul limit** doirasida e'lon joylashtiradi.
 - 6.2. Limit tugasa — yangi e'lon joylash uchun **rivojlantirish paketlari** shart emas; foydalanuvchi limit yangilanishini kutadi yoki e'lonlarni tartiblaydi. Agar Linnaas ayrim bo'limlarda kvotani oshirish uchun **pulli paket** taklif etsa, bu ixtiyoriy.
-

7. Reklama va rivojlantirish xizmatlari (pullik)

- 7.1. Ko'tarish / Top / VIP — e'lon ko'rinarligini oshiruvchi ixtiyoriy xizmatlar (2-ilova).
 - 7.2. Reklama bannerlari, brend vitrina, maxsus joylashlar — alohida taklif asosida.
 - 7.3. Trafik/klick/bitim **kafolatlanmaydi**; samaradorlik mavsum, kontent va talabga bog'liq.
 - 7.4. Paketlar odatda **bitta e'lon** ga biriktiriladi; muddat va hajmlar 2 va 6-ilovalarda.
-

8. To'lov va qaytarish siyosati (faqat reklama xizmatlari uchun)

- 8.1. Narxlar UZSda va odatda QQS bilan ko'rsatiladi.
- 8.2. To'lov — oldindan (prepaid); kartalar va to'lov provayderlari orqali.
- 8.3. Reklama xizmati to'liq tushgach ishga tushadi.
- 8.4. **Qaytarish:**

- Foydalanuvchi o'zi e'ltonni o'chirsa yoki muddatdan oldin to'xtatsa — **qaytarilmaydi**.
- Qoidabuzarlik sababli o'chirilsa — qaytarilmaydi; agar xato moderatsiya bo'lsa, **pro-rata** balansga qaytarilishi yoki qayta faollashtirish taklif qilinadi.
- Texnik nosozlik tufayli reklama ko'rsatilmasa — pro-rata **kompensatsiya (balansga)**.
 - 8.5. To'lov provayderlari bilan munosabat — alohida; Linnaas ularning xizmatlari uchun javobgar emas, ammo ko'mak ko'rsatishi mumkin.
 - 8.6. Hisob-faktura va aktlar — Biznes-foydalanuvchilarga, bevosita to'lovlardan.

10. Taqiqlangan va cheklangan faoliyat

- 10.1. Firibgarlik, IP huquqlarini buzish, haqoratomuz/nafratli/porno kontent, zo'ravonlikni targ'ib qilish, shaxsiy ma'lumotlarni ruxsatsiz tarqatish taqiqlanadi.

- 10.2. Quyidagi tovar va xizmatlar (qurol, narkotik, soxta hujjat, alkagol va uning o'rnini bosuvchi ichimliklar, qimor va b.) — taqiqlangan;
 - 10.3. Platformani aylanib o'tish (bot, scrapping), spam, reytingni sun'iy oshirish/pasaytirish — taqiqlanadi.
 - 10.4. Qoidabuzarliklarda Linnaas kontentni bloklashi, hisobni vaqtincha yoki doimiy cheklashi mumkin.
-

11. Moderatsiya, bloklash va e'tiroz

- 11.1. Shikoyat tugmasi va aloqa shakli orqali noqonuniy kontent haqida xabar berish mumkin.
 - 11.2. Asos topilsa — kontent bloki/olib tashlanadi; foydalanuvchiga xabar beriladi.
-

13. Xavfsizlik, kafolatlar va javobgarlikni cheklash

- 13.1. Linnaas Marketplace bitimlarining tomoni emas; foydalanuvchilar o'zaro munosabatlari uchun javobgar.
 - 13.2. Linnaas "bor holicha" asosida xizmat ko'rsatadi; uzluksizlik va xatosizlik kafolatlanmaydi.
 - 13.3. ERP'dagi ma'lumotlar uchun zaxira nusxa — mijoz zimmasida; Linnaas ma'lumot yo'qotilishi uchun javobgar emas, biroq texnik ko'mak ko'rsatadi.
-

14. Shikoyat qilish tartibi

- 14.1. Muammo/da'vo bo'lsa — "Yordam" orqali ID, vaqt, skrinshet bilan yuboring.